

GERMENEVTIK YONDASHUV VOSITASIDA TALABALARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH

G'aniyeva Dildora Bahodirovna
1-bosqich doktoranti
Andijon davlat pedagogika instituti
Andijon, O'zbekiston

Annotatsiya: Ushbu maqolada hermenevtik yondashuv orqali talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari ochib berilgan va uning oliy ta'lim tizimidagi pedagogik imkoniyatlari asoslab berilgan. Olingan natijalar shundan dalolat beradiki, hermenevtik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tizimli integratsiyalash talabalarning kommunikativ kompetentligi, talqin qilish tafakkuri va kasbiy muloqot darajasini sezilarli darajada oshiradi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish uchun ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tayanch iboralar: hermenevtik yondashuv, kommunikativ kompetentlik, talqin, kompetensiyaviy yondashuv.

РАЗВИТИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ ГЕРМЕНЕВТИЧЕСКОГО ПОДХОДА

Ганиева Дилдора Баходировна
Докторант 1-го курса
Андижанский государственный педагогический институт
Андижан, Узбекистан

Аннотация: В данной статье раскрываются теоретико-методологические основы развития коммуникативной компетентности студентов средствами герменевтического подхода и обосновываются его педагогические возможности в системе высшего образования. Полученные результаты свидетельствуют о том, что системная интеграция герменевтических технологий в образовательный процесс значительно

повышает уровень коммуникативной компетентности, интерпретационного мышления и профессиональной коммуникации студентов. Результаты исследования обладают научно-практической значимостью для совершенствования инновационных педагогических технологий, направленных на развитие коммуникативной компетентности в учреждениях высшего образования.

Ключевые слова: герменевтический подход, коммуникативная компетентность, интерпретация, компетентностный подход.

DEVELOPMENT OF STUDENTS' COMMUNICATIVE COMPETENCE THROUGH A HERMENEUTIC APPROACH

Ganieva Dildora Bakhodirovna
1st-Year Doctoral Student
Andijan State Pedagogical Institute
Andijan, Uzbekistan

Abstract: This article examines the theoretical and methodological foundations for developing students' communicative competence through a hermeneutic approach and substantiates its pedagogical potential within the higher education system. The findings indicate that the systematic integration of hermeneutic technologies into the educational process significantly enhances students' communicative competence, interpretive thinking, and professional communication skills. The research results hold scientific and practical significance for the advancement of innovative pedagogical technologies aimed at developing communicative competence in higher education institutions.

Keywords: hermeneutic approach, communicative competence, interpretation, competency-based approach.

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida oliy ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri nafaqat mutaxassislik bo'yicha chuqur nazariy bilimga ega, balki samarali

muloqot qila oladigan, turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda fikrini asosli ifodalaydigan, boshqalarning qarashlarini to'g'ri anglaydigan hamda konstruktiv hamkorlikni yo'lga qo'ya oladigan kompetent mutaxassislarni tayyorlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan kommunikativ kompetentlik zamonaviy oliy ta'limning eng muhim natijaviy ko'rsatkichlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Kommunikativ kompetentlik shaxsning til vositalaridan samarali foydalanishi, muloqot jarayonida fikr almashishi, bahs-munozara olib borishi, muammoli vaziyatlarni dialog asosida hal etishi, tinglash va tushunish madaniyatini namoyon etishi hamda kasbiy faoliyatda kommunikativ strategiyalarni qo'llay olish qobiliyatini ifodalaydi. Mazkur kompetentlikni rivojlantirish faqat nutqiy ko'nikmalarni shakllantirish bilangina cheklanmay, balki talabaning interpretativ tafakkuri, refleksiv faoliyati, tanqidiy fikrlashi va ma'no hosil qilish jarayonlarini ham rivojlantirishni talab etadi. So'nggi yillarda kompetensiyaviy yondashuv, konstruktiv pedagogika va dialogik ta'lim konsepsiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonida hermenevtik yondashuvning ahamiyatini yanada oshirdi. Hermenevtika matnni, voqelikni va inson faoliyatini chuqur anglash hamda talqin qilish nazariyasi sifatida ta'lim jarayoniga yangi metodologik imkoniyatlarni olib kiradi. Mazkur yondashuv talabalarning matn bilan faol ishlashi, turli nuqtai nazarlarni qiyosiy tahlil qilishi, yashirin ma'nolarni anglashga intilishi, muloqot davomida fikrlarni asoslab berishi va refleksiv xulosalar chiqarishiga xizmat qiladi. Natijada ta'lim jarayoni oddiy axborot uzatishdan ma'no yaratishga yo'naltirilgan interaktiv hamkorlik maydoniga aylanadi. Hermenevtik yondashuvning pedagogik salohiyati shundan iboratki, u talabalarning o'zaro muloqot madaniyatini, empatik tinglash ko'nikmalarini, argumentatsiya madaniyatini, kasbiy kommunikatsiyasini hamda ijtimoiy hamkorlik kompetensiyalarini kompleks rivojlantirish imkonini beradi. Ayniqsa, zamonaviy raqamli ta'lim muhiti, ko'p madaniyatli kommunikatsiya va fanlararo integratsiya sharoitida hermenevtik texnologiyalarning qo'llanilishi talabalarning kommunikativ kompetentligini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Mavzuning dolzarbligi oliy ta'lim muassasalarida kommunikativ

kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan mavjud pedagogik texnologiyalarni hermenevtik yondashuv asosida takomillashtirish zarurati bilan belgilanadi. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, ko'plab ta'lim jarayonlarida kommunikativ faoliyat ko'proq reproduktiv xarakter kasb etib, talabalarning mustaqil interpretatsiya qilish, tanqidiy tahlil yuritish, dialogik fikrlash va refleksiya ko'nikmalarini yetarli darajada rivojlantirishga xizmat qilmayapti. Bu esa kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning metodologik asoslarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi hermenevtik yondashuv vositasida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini ochib berish, uning pedagogik imkoniyatlarini asoslash hamda oliy ta'lim amaliyotida qo'llashning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, pedagogik kuzatish, tizimli yondashuv va ilmiy umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan innovatsion pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish, talabalarning dialogik tafakkurini, interpretativ faoliyatini va kasbiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish uchun nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogika, psixologiya, lingvodidaktika va falsafa fanlari kesishgan nuqtada shakllanayotgan dolzarb ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Mazkur muammo kompetensiyaviy yondashuvning ta'lim tizimiga keng joriy etilishi natijasida yanada dolzarb ahamiyat kasb etdi. Xususan, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy asoslarini hermenevtik yondashuv bilan integratsiyalash talabalarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida yangi pedagogik imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Hermenevtika nazariyasining metodologik asoslari XIX–XX asrlarda F. Shleyermaxer, V. Diltey, M. Xaydegger va H.-G.

Gadamer tomonidan ishlab chiqilgan. Ushbu olimlar germeneytikani matnni talqin qilish nazariyasidan insonning borliqni anglash, tushunish va ma'no hosil qilish metodologiyasigacha rivojlantirdilar. Ayniqsa, Gadamerning «tushunish – bu dialog» tamoyili ta'lim jarayonida o'qituvchi va talaba o'rtasidagi hamkorlikka asoslangan kommunikativ muhitni shakllantirishning nazariy poydevorini yaratdi. Uning fikricha, bilim tayyor holatda uzatilmaydi, balki dialog, interpretatsiya va o'zaro anglash jarayonida hosil bo'ladi. Zamonaviy xorijiy tadqiqotlarda kommunikativ kompetentlik ko'proq kompetensiyaviy ta'lim, dialogik pedagogika hamda refleksiv ta'lim konsepsiyalari doirasida o'rganilgan. M. Byram kommunikativ kompetentlikni lingvistik bilim bilan cheklamay, uni madaniyatlararo muloqot, tolerantlik va ijtimoiy hamkorlik bilan bog'laydi. J. Hattie ta'lim samaradorligini oshirishda refleksiya, samarali muloqot va o'quvchi faolligining ustuvor ahamiyatini asoslaydi. J. Mezirow esa transformativ ta'lim nazariyasi orqali refleksiv tahlil va ma'no hosil qilish shaxs rivojlanishining asosiy omili ekanligini ta'kidlaydi. Kommunikativ kompetentlikning tarkibiy tuzilishi D. Hymes, M. Canale va M. Swain tomonidan ilmiy asoslangan bo'lib, ular kommunikativ kompetentlikni grammatik, sotsiolingvistik, diskursiv va strategik komponentlarning uzviy birligi sifatida tavsiflaydi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu model refleksiv, madaniyatlararo va interpretativ kompetensiyalar bilan boyitildi. Natijada kommunikativ kompetentlik nafaqat samarali nutqiy faoliyat, balki suhbatdoshning pozitsiyasini anglash, argumentlarni tahlil qilish va turli nuqtai nazarlarni uyg'unlashtirish qobiliyati sifatida talqin qilinmoqda. O'zbekiston olimlarining ilmiy tadqiqotlarida ham kompetensiyaviy yondashuv asosida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. N. Muslimov, A. Xoliqov, R. Ishmuhamedov, U. Tolipov, M. Ochilov va boshqa olimlarning ilmiy ishlari bo'lajak mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslarini yoritishga xizmat qilgan. Ushbu tadqiqotlarda interfaol metodlar, muammoli ta'lim, hamkorlik pedagogikasi va refleksiv texnologiyalar kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning muhim

omillari sifatida e'tirof etilgan. So'nggi yillarda oliy ta'limni modernizatsiya qilish, raqamli pedagogika va kompetensiyaviy ta'limni rivojlantirishga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlar ham kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalish sifatida belgilanishiga xizmat qilmoqda. Bunda talabalarning mustaqil fikrlashi, muloqot madaniyati, tanqidiy tahlil, jamoada ishlash hamda kasbiy kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim sifatining muhim mezonlaridan biri sifatida qaralmoqda. Tahlil qilingan ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetentlik bo'yicha ko'plab tadqiqotlar mavjud bo'lsa-da, uning aynan hermenevtik yondashuv vositasida rivojlantirish mexanizmlari, pedagogik modeli, didaktik shart-sharoitlari hamda amaliy texnologiyalari yetarli darajada kompleks o'rganilmagan. Mavjud tadqiqotlarning aksariyati kommunikativ kompetentlikning umumiy nazariy asoslari yoki alohida pedagogik texnologiyalarni yoritishga qaratilgan bo'lib, hermenevtik interpretatsiya, dialogik anglash va refleksiv tahlilning o'zaro integratsiyasiga asoslangan yaxlit metodik tizim kam tadqiq etilgan. Shu sababli hermenevtik yondashuv vositasida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, pedagogik modelini ishlab chiqish, samarali metod va texnologiyalarni taklif etish hamda ularning ta'lim jarayonidagi samaradorligini asoslash mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi va dolzarbligini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot hermenevtik yondashuv vositasida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash, uning pedagogik samaradorligini baholash hamda oliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish mexanizmlarini ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot kompetensiyaviy, shaxsga yo'naltirilgan, faoliyatga asoslangan va hermenevtik yondashuvlarning o'zaro integratsiyasi asosida tashkil etildi. Ushbu metodologik yondashuvlar talabaning muloqot jarayonidagi faolligini, interpretativ tafakkurini, refleksiv

faoliyatini va kasbiy kommunikativ kompetentligini kompleks rivojlantirish imkonini berdi. Tadqiqotning metodologik asosini hermenevtik falsafa, dialogik ta'lim nazariyasi, konstruktivistik pedagogika hamda kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyalari tashkil etdi. Hermenevtik yondashuv doirasida matnni anglash, talqin qilish, mazmunni qayta qurish, dialog orqali bilim hosil qilish va refleksiv tahlil tadqiqotning asosiy tamoyillari sifatida belgilandi. Bunda H.-G. Gadamerning dialog va tushunish konsepsiyasi, M. Xaydeggerning interpretatsiya nazariyasi, D. Hymes hamda M. Canale va M. Swainning kommunikativ kompetentlik modeli nazariy asos sifatida xizmat qildi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

- **Nazariy tahlil** – hermenevtika, kommunikativ kompetentlik, dialogik ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy adabiyotlar, monografiyalar, dissertatsiyalar hamda me'yoriy-huquqiy hujjatlarni o'rganish va tizimlashtirishda qo'llanildi.
- **Qiyosiy tahlil** – mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari hamda hermenevtik metodlarning pedagogik imkoniyatlarini taqqoslash maqsadida amalga oshirildi.
- **Pedagogik kuzatish** – talabalarning auditoriya mashg'ulotlaridagi kommunikativ faolligi, dialogik ishtiroki, matnni interpretatsiya qilish ko'nikmalari hamda refleksiv faoliyatini aniqlash uchun qo'llanildi.
- **Suhbat va yarim tuzilmaviy intervyu** – talabalar va professor-o'qituvchilarning hermenevtik metodlardan foydalanishga oid fikrlari, ehtiyojlari hamda amaliy tajribalarini aniqlashga xizmat qildi.
- **Pedagogik tajriba-sinov** – ishlab chiqilgan hermenevtik texnologiyalar va metodik tavsiyalarning kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishdagi samaradorligini aniqlash maqsadida tashkil etildi.

- **Ekspert baholash** – pedagogika va metodika yo'nalishidagi mutaxassislar ishtirokida ishlab chiqilgan metodik model hamda baholash mezonlarining ilmiy asoslanganligi tahlil qilindi.
- **Matematik-statistik tahlil** – tajriba-sinov natijalarining ishonchliligini aniqlash, tajriba va nazorat guruhlarini ko'rsatkichlarini taqqoslash hamda olingan natijalarning statistik ahamiyatini baholashda qo'llanildi.

Tadqiqotning empirik qismi oliy ta'lim muassasalari talabalarini qamrab oldi. Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda talabalarning kommunikativ kompetentlik darajasi diagnostika qilinib, mavjud holat tahlil qilindi. Ikkinchi bosqichda germeneytik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik model amaliyotga joriy etildi. Mazkur model dialogik ta'lim, matn interpretatsiyasi, refleksiv yozuv, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, akademik munozaralar, keys-stadi va hamkorlikda o'qitish metodlarini o'z ichiga oldi. Uchinchi bosqichda tajriba natijalari tahlil qilinib, kommunikativ kompetentlik rivojlanishidagi o'zgarishlar baholandi. Kommunikativ kompetentlikni baholash mezonlari sifatida kommunikativ bilimlar, og'zaki va yozma muloqot ko'nikmalari, argumentatsiya madaniyati, dialog olib borish qobiliyati, refleksiv fikrlash, interpretativ tahlil hamda kasbiy kommunikatsiya kompetensiyalari tanlandi. Har bir mezon yuqori, o'rta va boshlang'ich darajalar bo'yicha baholanib, sifat va miqdor ko'rsatkichlari asosida tahlil qilindi. Tadqiqotning ishonchliligi metodlarning o'zaro uyg'unligi, nazariy va empirik ma'lumotlarning qiyosiy tahlili, tajriba-sinov natijalarining statistik qayta ishlanishi, ekspert xulosalari hamda olingan natijalarning amaliyot bilan tasdiqlanishi orqali ta'minlandi. Mazkur metodologiya germeneytik yondashuv vositasida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning pedagogik samaradorligini ilmiy asosda baholash va uni oliy ta'lim amaliyotiga tatbiq etish uchun zarur metodik asosni yaratdi.

NATIJARAR

Tadqiqot davomida germevntik yondashuv asosida ishlab chiqilgan pedagogik modelning talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga ta'siri tajriba-sinov ishlari orqali baholandi. Tajriba uch bosqichda – diagnostik, shakllantiruvchi va yakuniy nazorat bosqichlarida amalga oshirildi. Har bir bosqichda talabalarning kommunikativ faoliyati kompleks mezonlar asosida tahlil qilinib, natijalar qiyosiy ravishda baholandi. Dastlabki diagnostika natijalari talabalarning aksariyatida kommunikativ kompetentlikning ayrim tarkibiy qismlari yetarli darajada shakllanmaganligini ko'rsatdi. Xususan, talabalar matnni chuqur interpretatsiya qilish, ilmiy munozaralarda dalillarni asoslash, muqobil fikrlarni tahlil qilish, refleksiv xulosa chiqarish hamda kasbiy dialogni samarali tashkil etishda qiyinchiliklarga duch kelishlari aniqlandi. Shu bilan birga, muloqot jarayonida mustaqil fikr bildirish, tinglash madaniyati va argumentatsiya ko'nikmalarida ham rivojlantirish zarur bo'lgan jihatlar mavjudligi kuzatildi. Shakllantiruvchi bosqichda ishlab chiqilgan germevntik model amaliyotga joriy etildi. O'quv mashg'ulotlarida dialogik ta'lim texnologiyalari, matn interpretatsiyasi, refleksiv esse yozish, akademik munozaralar, keys-stadi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, kichik guruhlarda hamkorlikda ishlash hamda savol-javobga asoslangan germevntik suhbat metodlaridan tizimli foydalanildi. Mazkur metodlar talabalarni tayyor bilimni o'zlashtirishdan ko'ra, mazmunni mustaqil anglash, fikrlarni izchil asoslash va ilmiy muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirdi. Yakuniy nazorat natijalari tajriba guruhidagi talabalar kommunikativ kompetentligining barcha mezonlari bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilganligini ko'rsatdi. Ayniqsa, matnni interpretatsiya qilish, dialog olib borish, tanqidiy fikrlash, ilmiy argumentatsiya va refleksiv tahlil ko'nikmalarining rivojlanishida yuqori dinamika qayd etildi. Talabalar murakkab pedagogik va ijtimoiy vaziyatlarni tahlil qilishda turli nuqtai nazarlarni qiyoslay olish, mantiqiy xulosalar chiqarish hamda kasbiy muloqotda dalillarga asoslangan fikr yuritish qobiliyatini namoyon etdilar.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, hermenevtik yondashuv talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda quyidagi pedagogik afzalliklarni ta'minlaydi:

- matn va axborotni chuqur anglash hamda interpretatsiya qilish qobiliyatini rivojlantiradi;
- dialogik muloqot madaniyatini va samarali hamkorlik ko'nikmalarini shakllantiradi;
- tanqidiy va refleksiv fikrlashni faollashtiradi;
- ilmiy argumentatsiya va dalillash madaniyatini mustahkamlaydi;
- kasbiy kommunikatsiyada mustaqil qaror qabul qilish va asoslangan fikr bildirish kompetensiyasini rivojlantiradi;
- ta'lim jarayonida talabaning subyekt sifatidagi faolligini kuchaytiradi.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari hermenevtik yondashuv vositasida tashkil etilgan ta'lim texnologiyalari talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samarali pedagogik vositasi ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Olingan natijalar ishlab chiqilgan metodik modelni oliy ta'lim muassasalarining o'quv jarayoniga joriy etish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi hamda uning amaliy samaradorligini isbotlaydi.

MUHOKAMA

Tadqiqot natijalari hermenevtik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini ko'rsatdi. Olingan natijalar kommunikativ kompetentlikning nafaqat nutqiy faoliyat, balki interpretativ tafakkur, refleksiv fikrlash, dialogik hamkorlik va kasbiy muloqot madaniyati bilan uzviy bog'liqligini tasdiqlaydi. Shu jihatdan tadqiqot natijalari zamonaviy kompetensiyaviy ta'lim konsepsiyasining asosiy g'oyalari bilan uyg'unlashadi. Tadqiqot davomida qo'llanilgan hermenevtik metodlar talabalarning matnni chuqur anglash, yashirin ma'nolarni aniqlash, turli nuqtai nazarlarni qiyosiy tahlil qilish

hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Bu holat H.-G. Gadamer tomonidan ilgari surilgan "tushunish dialog orqali yuzaga keladi" degan ilmiy qarashning pedagogik amaliyotdagi tasdig'i sifatida namoyon bo'ldi. Dialogga asoslangan ta'lim muhiti talabalarni passiv tinglovchidan faol bilim yaratuvchisiga aylantirib, ularning kommunikativ faolligini oshirdi. Natijalar D. Hymes, M. Canale va M. Swain tomonidan ishlab chiqilgan kommunikativ kompetentlik modelining tarkibiy komponentlari o'zaro integratsiyalashgan holda rivojlanishini ham ko'rsatdi. Xususan, grammatik bilimlarning o'zi samarali kommunikatsiyani ta'minlash uchun yetarli emasligi, balki sotsiolingvistik moslashuv, strategik muloqot, diskursiv izchillik va interpretativ fikrlashning ham muhim ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Germenevtik yondashuv aynan ushbu komponentlarning kompleks rivojlanishini ta'minlovchi metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Tadqiqot natijalari J. Mezirowning transformativ ta'lim nazariyasida ilgari surilgan reflektiv o'rganish tamoyillari bilan ham mos keladi. Talabalar o'z fikrlarini qayta ko'rib chiqish, muqobil qarashlarni tahlil qilish va ilmiy dalillarga tayangan holda yangi xulosalar chiqarish jarayonida kommunikativ kompetentligini yanada takomillashtirdilar. Bu esa germenevtik yondashuvning faqat bilimlarni o'zlashtirish emas, balki shaxsiy va kasbiy rivojlanishni ham ta'minlovchi pedagogik mexanizm ekanligini ko'rsatadi. Mahalliy pedagogik tadqiqotlarda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar va hamkorlik pedagogikasining afzalliklari keng yoritilgan bo'lsa-da, kommunikativ kompetentlikni germenevtik yondashuv asosida rivojlantirish masalasi hali yetarlicha tizimli tadqiq etilmagan. Mazkur tadqiqot ushbu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi hamda germenevtik texnologiyalarni oliy ta'lim amaliyotiga integratsiya qilishning ilmiy-metodik asoslarini taklif etadi. Tajriba-sinov natijalarining tahlili shuni ko'rsatdiki, dialogik ta'lim, matn interpretatsiyasi, reflektiv esse yozish, akademik munozaralar va keys-stadi metodlarining kompleks qo'llanilishi talabalarning muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlashi va kasbiy kommunikatsiyasini rivojlantirishda alohida ahamiyat kasb

etadi. Ayniqsa, talabalarning fikrlarini ilmiy asoslash, bahs-munozaralarda faol ishtirok etish va turli nuqtai nazarlarga nisbatan tolerant munosabat bildirish ko'nikmalari sezilarli darajada takomillashdi. Shu bilan birga, tadqiqot ayrim cheklovlarga ham ega. Tajriba-sinov ishlari ma'lum bir oliy ta'lim muassasasida va cheklangan respondentlar ishtirokida o'tkazilgani sababli natijalarni barcha ta'lim yo'nalishlariga umumlashtirish ehtiyotkorlikni talab qiladi. Bundan tashqari, kommunikativ kompetentlikning uzoq muddatli rivojlanish dinamikasi hamda hermenevtik yondashuvning raqamli va sun'iy intellektga asoslangan ta'lim platformalari bilan integratsiyasi mazkur tadqiqot doirasidan tashqarida qoldi.

Kelgusidagi ilmiy izlanishlarda hermenevtik yondashuvni turli fanlar kesimida qo'llash, uning raqamli ta'lim muhitidagi samaradorligini eksperimental jihatdan baholash, sun'iy intellekt vositalari bilan uyg'unlashtirilgan hermenevtik o'qitish texnologiyalarini ishlab chiqish hamda kommunikativ kompetentlikni baholashning zamonaviy diagnostik mezonlarini takomillashtirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari hermenevtik yondashuv talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samarali metodologik va didaktik asosi ekanligini tasdiqlaydi. Mazkur yondashuv oliy ta'lim jarayonida talabalarning mustaqil fikrlashini, dialogik madaniyatini, refleksiv faoliyatini va kasbiy kommunikativ salohiyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi innovatsion pedagogik texnologiyalarni takomillashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari hermenevtik yondashuv talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning samarali metodologik va didaktik asosi ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi. Tadqiqot davomida kommunikativ kompetentlikning faqat nutqiy ko'nikmalar majmui emas, balki interpretativ tafakkur, refleksiv faoliyat, tanqidiy fikrlash, dialogik muloqot va kasbiy hamkorlikni o'z ichiga oluvchi kompleks kompetensiya ekani asoslab berildi.

Germenevtik yondashuv ushbu komponentlarning uzviy rivojlanishini ta'minlash orqali talabalarning kasbiy va ijtimoiy muloqot samaradorligini oshirishga xizmat qilishi aniqlandi. Tadqiqot jarayonida ishlab chiqilgan pedagogik model va germenevtik texnologiyalarni oliy ta'lim amaliyotiga joriy etish natijasida talabalar matnni chuqur anglash, turli nuqtai nazarlarni qiyosiy tahlil qilish, ilmiy argumentatsiya yuritish, refleksiv xulosalar chiqarish hamda samarali dialog olib borish ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirgani kuzatildi. Tajriba-sinov natijalari germenevtik yondashuv asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni kommunikativ kompetentlikning barcha tarkibiy komponentlariga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi ilmiy-amaliy xulosalarga kelindi:

- germenevtik yondashuv kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishning nazariy va metodologik asoslarini boyitadi hamda kompetensiyaviy ta'lim mazmunini takomillashtiradi;
- dialogik ta'lim, matn interpretatsiyasi, refleksiv esse, akademik munozara va keys-stadi metodlarining kompleks qo'llanilishi talabalarning kommunikativ faolligi va kasbiy muloqot madaniyatini sezilarli darajada rivojlantiradi;
- germenevtik texnologiyalar talabalarda tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, dalillarga asoslangan fikr bildirish va refleksiv tahlil qilish kompetensiyalarini shakllantiradi;
- kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish jarayonida o'qituvchi bilim beruvchi emas, balki dialogni tashkil etuvchi, interpretatsiyani yo'naltiruvchi va refleksiv faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi pedagogik fasilitator sifatida faoliyat yuritishi zarur;
- oliy ta'lim muassasalarida germenevtik yondashuv asosida ishlab chiqilgan metodik modelni o'quv jarayoniga tatbiq etish ta'lim sifatini oshirish hamda bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi: oliy ta'lim muassasalarining o'quv dasturlariga germenevtik yondashuv elementlarini tizimli ravishda integratsiya qilish; seminar va amaliy mashg'ulotlarda dialogik ta'lim hamda interpretativ tahlil metodlaridan muntazam foydalanish; talabalarning refleksiv faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar ulushini oshirish; kommunikativ kompetentlikni baholashning zamonaviy mezon va indikatorlarini ishlab chiqish hamda professor-o'qituvchilarning germenevtik pedagogika bo'yicha kasbiy malakasini muntazam takomillashtirish. Umuman olganda, germenevtik yondashuv vositasida talabalarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish oliy ta'limning kompetensiyaviy modelini takomillashtirishga, ta'lim jarayonining dialogik va refleksiv xususiyatini kuchaytirishga hamda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan va samarali muloqot qila oladigan mutaxassislarni tayyorlashga xizmat qiluvchi istiqbolli pedagogik yo'nalish ekanligi ilmiy asoslandi. Mazkur tadqiqot natijalari oliy ta'lim tizimida kommunikativ kompetentlikni rivojlantirishga oid keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy-metodologik manba hamda amaliy tavsiyalar bazasi sifatida xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. O'zbekiston Respublikasining **"Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni**. O'RQ-637-son, 2020-yil 23-sentabr.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"** PF-158-son Farmoni. 2023-yil 11-sentabr.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining **"Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha** Muslimov N.A. **Kasb ta'limi pedagogikasi**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Tolipov O'.Q., Usmonboyeva M. **Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot**. – Toshkent: Fan, 2020.
6. Ishmuhamedov R.J. **Innovatsion pedagogik texnologiyalar**. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
7. Xoliqov A.A. **Pedagogik mahorat**. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.

8. Ochilov M. **Pedagogika.** – Toshkent: O'qituvchi, 2021.
9. Byram, M. (2021). *Teaching and Assessing Intercultural Communicative Competence.* Multilingual Matters.
10. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47.
11. Gadamer, H.-G. (2004). *Truth and Method* (2nd rev. ed.). Continuum.
12. Heidegger, M. (1962). *Being and Time*. Blackwell Publishing.
13. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), *Sociolinguistics*. Penguin Books.
14. Mezirow, J. (2000). *Learning as Transformation: Critical Perspectives on a Theory in Progress*. Jossey-Bass.